

Surxondaryoda "hokim yordamchisi" lavozimiga nomzodlar saralanmoqda



Surxondaryoda "hokim yordamchisi" lavozimiga nomzodlar saralanmoqda Prezident Shavkat Mirziyoevning saylovoldi dasturida aytilganidek, kelasi yil 1 yanvardan mamlakatimizdagi 9 ming 259 ta mahallada "hokim yordamchilari" ish boshlaydi.

Ayni vaqtda ishchi guruh tomonidan Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlaridagi mavjud 721 ta mahallaning salohiyati va muammolari o'rganilib, ular uchun eng munosib nomzodlar saralanmoqda.

Bugun Qiziriq tumani hokimligida "mahallabay" ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida tumandagi 31 ta mahalla fuqarolar yig'ini bo'yicha tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tashkil etilayotgan "hokim yordamchisi" lavozimi uchun nomzodlar suhbatdan o'tkazildi.

Ma'lumot uchun, shu kungacha Termiz shahri, Termiz, Angor, Sherobod, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Bandixon, Muzrabot, Qiziriq tuman hokimlari, hokim o'rinbosarlari,

mahalla raislari va tanlangan nomzodlar uchun amaliy seminarlar o'tkazildi.

